

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh. T.Axmadjonova	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
Sh. T.Axmadjonova	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
Sh. Sh.Dadabayeva	Expression of comparative relation in language.....	990
N.X.Alieva	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
I.M.Jo'rayev	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
O.Q.Xasanova	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
И.Ф.Порубай	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
I.M.Qo'chqarov	Methods of teaching english.....	1028
N.Z.Axmadjonov	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
Z.M.Xalilova	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
G.R.Tashmatova	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
Sh.A.Nuraliyeva	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rni.....	1044
Z.M.Abdullayev	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
N.Z.Axmadjonov	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
D.X.Madazizova	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
R.U.Axrorova	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
R.U.Axrorova, L.B.Ikromova	Adabiy asarlarda maqollarning o'rni.....	1064
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
Sh.O.Abdiloyev	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
N.Q.Adamboeva	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
T.Z.Mingboyeva	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva	Omma oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
R.A.Ortiqov	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



NEMIS TILIDA FRAZEMALARNING TURLI MA'NODA QO'LLANILISHI

РАЗЛИЧНЫЕ ВАРИАНТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИДИОМ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

DIFFERENT VARIANTS OF IDIOM USAGE IN THE GERMAN LANGUAGE

Mamatova Anora

Nemis va fransuz tillari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy ifodalanishi va lug'atlardagi tasnifi qisqacha tadqiq qilingan hamda misollar yordamida yoritilgan. Frazеologik muqobillikni o'rnatishda ibora tarkibidagi asosiy ma'noni ifodalovchi komponentning turli frazemalar tarkibida turlicha ma'no kashf etishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, bir qator somatik so'zlar turli tillarda ham o'xshash, ham noo'xshash bo'lgan frazemalarning shakllanishida bir xil ma'noda qo'llanmaydi, balki turli ma'no nozikliklari asosida ishtirok etadi. Ayniqsa, mavhum ma'no ifodalovchi birliklar ma'no va mazmunida bunday ma'no ko'chishlari ko'p kuzatiladi. His-tuyg'u, turli emotsional holatlar ifodasi bilan bog'liq shakllarda ham ular tarkibidagi mazmun juda nozik qirralari bilan o'zaro farqlanishini kuzatamiz. Bu ham tilning o'ta murakkab aloqa vositasi ekanligi, uning idroki ong qadar qadimiy va ong qadar tezkor ekanligi bilan izohlanishi ochib berilgan.

Аннотация

В статье кратко изучается и поясняется с помощью примеров речевое выражение национально-культурных особенностей фразеологизмов в немецком языке и их классификация в словарях. При установлении фразеологической альтернативы особое внимание следует обратить на то, что компонент, выражающий основное значение словосочетания, обнаруживает в разных словосочетаниях разное значение. Известно, что ряд соматических слов не употребляются в одном и том же смысле при образовании сходных и непохожих словосочетаний в разных языках, а участвуют в разных тонкостях значения. В частности, часто наблюдают, что такое значение меняет смысл и содержание единиц, выражающих абстрактный смысл. Даже в формах, связанных с выражением чувств и различных эмоциональных состояний, мы наблюдаем, что их содержание отличается друг от друга очень тонкими гранями. Выявлено, что это объясняется тем, что язык является очень сложным средством общения, а его восприятие очень древнее и очень быстрое.

Abstract

In the article, the speech expression of national-cultural features of idioms in the German language and their classification in dictionaries are briefly studied and explained with the help of examples. When establishing a phraseological alternative, special attention should be paid to the fact that the component expressing the main meaning of the phrase discovers a different meaning in different phrases. It is known that a number of somatic words are not used in the same sense in the formation of similar and dissimilar phrases in different languages, but are involved in different subtleties of meaning. In particular, it is often observed that such meaning shifts in the meaning and content of units expressing an abstract meaning. Even in the forms related to the expression of feelings and various emotional states, we observe that their content differs from each other with very fine edges. It is revealed that this is explained by the fact that language is a very complex means of communication, and its perception is very ancient and very fast.

Kalit so'zlar: frazeologiya, komponent, ma'no, muqobillik, frazema, tilshunoslik, leksika, ifodalanishi, tarkib.

Ключевые слова: фразеология, компонент, значение, альтернатива, словосочетание, лингвистика, лексика, выражение, содержание.

Key words: phraseology, component, meaning, alternative, word combination, linguistics, vocabulary, expression, content.

KIRISH

Frazеologik muqobillikni o'rnatishda ibora tarkibidagi asosiy ma'noni ifodalovchi komponentning turli frazemalar tarkibida turlicha ma'no kashf etishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, bir qator somatik so'zlar turli tillarda ham o'xshash, ham noo'xshash bo'lgan frazemalarning shakllanishida bir xil ma'noda qo'llanmaydi, balki turli ma'no nozikliklari asosida

ishtirok etadi. Ayniqsa, mavhum ma'no ifodalovchi birliklar ma'no va mazmunida bunday ma'no ko'chishlari ko'p kuzatiladi. His-tuyg'u, turli emotsional holatlar ifodasi bilan bog'liq shakllarda ham ular tarkibidagi mazmun juda nozik qirralari bilan o'zaro farqlanishini kuzatamiz. Bu ham tilning o'ta murakkab aloqa vositasi ekanligi, uning idroki ong qadar qadimiy va ong qadar tezkor ekanligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nemis tilida frazemalar tarkibida ishtirok etgan ~Herz so'zi insondagi 'xursandlik, zavqlanish, shodlanish, yengillik his qilish' tuyg'ularini ifodalashda asosiy ma'no tashuvchi komponent sifatida ishtirok etgan. Lug'atshunos ushbu umumiy ma'no doirasidan kelib chiqqan holda o'zbek tilidagi muqobil variantni topishi lozim. Aytib o'tish joizki, bu har doim ham oson kechmaydi. Bir tildagi matnning ikkinchi bir tilga tarjimai bu bir dunyoqarashning ikkinchi bir dunyoqarashga muqoyasasi demakdir. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarjimai o'zining semantik va stilistik bo'yoqdorligi bilan bu jarayonni yanada murakkablashtiradi va ayni paytda undagi milliy-madaniy belgilarni yanada faollashtiradi. Ularni nutqda qo'llash milliy-madaniy qarashlar, idrok hamda shakl uchligidagi o'zaro mutanosiblikka tayanmas ekan, ularni o'rinli ishlatilishiga erishib bo'lmaydi. Ba'zi mutaxassislar bunday pallalarda iboralarni qo'llashdan ham voz kechib qo'ya qoladilar. Leksikologiya, sintaksis, uslubiyat va mantiq, qolaversa, nutq madaniyati masalalarini o'zida mujassamlagan bu noyob til durdonalariga bunday munosabatni to'g'ri deb baholab bo'lmaydi. Bunda tarjima jarayonlarida qo'llanadigan eng samarali an'anaviy usullardan biri iboralarni avval leksik birliklar yordamida izohlab, so'ng o'zga tilidagi turli ekvivalentlarini tavsiya etishdir. Masalan, 'yuragim orom topdi, yuragimga yorug'lik tushdi, xursandligimdan boshim osmonga yetdi, yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi'. Bu kabi frazemalar nemis tili frazemalari kabi, yuqorida ta'kidlanganday, xursandchilik tuyg'ularini ifodalashda qo'llaniladi.

Lekin ~Herz leksemasi boshqa frazemalar komponenti sifatida 'o'zga' tuyg'ularni ifodalashda ishtirok etishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak[12].

Yurak leksemasi ishtirokidagi frazemalar nemis tilida katta salmoqqa va keng mazmun va uslubiy-semantik belgilarga egadir.

Masalan, bu so'z hayajon, sabrsizlik tuyg'ularini ifodalashda ham ishtirok etadi:

~ das Herz schlägt j-m bis zum/hinen in den Hals

~ 'yuragi/joni bo'g'ziga keldi /tiqildi'

Ko'rinadiki, nemis tilida ham o'zbek tilida bo'lgani kabi yurak so'zining asosiy ma'nosi jon, hayot, umr tushunchalari bilan bog'liqdir. Bu ularning integral semantik jihatlarini bo'lgani holda ba'zi milliy-madaniy belgilarga ko'ra o'zbek va nemis tillari frazeologik birliklar mazmun mundarijasida differensial belgilarni ham uchratish mumkindir[1]. Bunga misol tariqasida ushbu so'zning 'yoqimsiz' holatlarni ifodalashdagi ishtirokini tahlil etib ko'rish mumkin:

~ Das Herz krampft sich j-t zusattem;

~ ya'ni so'zma-so'z ~'yuragi siqildi'~'qo'rqinchdan, boshga tushgan yomonlikdan azoblanish hissi, yuragi ezilib ketmoq, yuragi siqilib ketmoq'. [2]

Nemis tilida yurak bukchaydi tarzida ifoda etilgan mazkur frazeologik birlik mazmuni shu ma'noga yaqin bo'lgan.

~ das Herz dreht sich j-m im Leibe herit iborasi ~ (so'zma-so'z ~ yuragi tanani ichida o'ynadi) ~'yuragim o'ynab ketdi;' ma'nosini ifodalaydi.

Qo'rqinchdan:

~ j-t steht das Herz stil - (so'zma-so'z ~ yuragi tinchidi) ~'yuragim qo'rquvdan to'xtab qoldi' frazemasi ishlatiladi.

Ma'lumki, iboralarda mazmunning kuchli ifoda etilishini ta'minlash maqsadida mubolag'a, kuchaytirish va shu kabi qator badiiy vositalardan foydalaniladi[2].

Og'zaki nutqda qo'rquv tuyg'usi quyidagi frazeologik iboralar orqali ham ifodalanadi:

~ das Herz fällt (rutscht~sirg'anmoq, o'tmoq)

~ j-m in die Hose (so'zma-so'z~ yuragi tovoniga tushib ketdi) yoki

~ das Herz geht j-m wie ein Latterschwanzchen (so'zma-so'z ~yuragi qo'zichoqning dumiday pastga tushdi). Bu o'zbek tilidagi ~ 'yurak hovuchlamoq', 'yuragi tovoniga tushmoq' ifodalariga mazmunan mos keladi. Shunisi e'tiborliki, iboralarda ko'zga ko'ringan belgilarga ishora qilish, o'xshatish asosidagi ko'chim ko'p uchraydi. Nemis tilidagi ibora tarkibida qo'zichoq dumiday

TILSHUNOSLIK

o'xshatishining qo'llanilishi bunga misol bo'ladi. Bu o'xshatishlar xalqlarning milliy-madaniy va hatto tabiiy-iqlim sharoitlariga ham bog'liq bo'lgan. Bu o'rinda yurak so'zining boshqa tana a'zosi nomi bilan almashingan o'rinlari ham mavjud, masalan, po'takasi yorildi, o'takasi yorildi kabi[4].

Bulardan tashqari ijobiy insoniy tuyg'ular ifodasini Herz komponenti ishtirokidagi quyidagi iboralarda uchramiz:

~ Das Herz auf dem rechten Fleck haben (so'zma-so'z ~ yuragining o'ng tomonida bo'lmoq, ijobiy xislatlarga ishlatiladi) ~ 'bag'rikeng, ko'ngli yumshoq, chin inson, yordamga tayyor';

~ Das Herz auf der Zunge haben (so'zma-so'z ~ yuragi tilida) ~'tili bilan dili bir, to'g'ri so'z inson';

~ j-m aus dem Herzen sprechen (so'zma-so'z ~ chin dildan gapirmoq, ochiq-oydin, chin yurakdan gapirmoq';

~ ein Herz und Seele sein (so'zma-so'z ~yurak va qalb bir bo'lmoq) ~'bir tanu bir jon bo'lmoq'.[6]

NATIJA VA MUHOKAMA

Nemis tili leksik hamda frazeologik lug'atlarida Herz 'yurak' so'zi bilan kelgan 60 ga yaqin iboralar mavjud. Ularni lingvistik tahlilga tortsak, Herz so'zining denotativ ma'nosi quyidagicha izohlanadi:

~Herz, (das; -ens, -en/Verklein ~kichraytirish, erkalash)

~Herzchen ~'yurakcha', ~ Herz(e)lein ~'yurakcham'[8]

1.Muskellöses Hohlorgan von der Größe einer Faust, das mit der Spitze nach verläuft hinter dem Brustlein liegt und der Reger, zentrale Motor des Blutkreislaufs ist [1];. (so'zma-so'z ~musht kattaligidagi ichi bo'sh organ, uchi kichik ko'krak orqasidagi chap tomonga yo'naltirilgan regulyator, qon aylanishining markaziy motori hisoblanadi.)

Bu so'zning frazeologik iboralardagi ishtiroki ko'p holatlarda umuman denotativning ma'nosiga bog'lanmagan holda ko'plab frazeologik iboralar komponenti sifatida yangicha ma'nolarni shakllantirishdagi "xizmatiga" guvoh bo'lamiz. Masalan, Schreck qo'rquvni ifodalashda quyidagi frazemalarning ma'nosiga e'tibor bersak:

~vor Angst schlug das Herz bis an den Hals hinauf;

~'qo'rquvdan yuragi tomog'iga keldi/tiqildi';

~Mein Herz stand still, stockte vor Schreck;

~'qo'rquvdan yuragi to'xtab qoldi';

~Das Herz fällt (rutscht) j-m in die Hose,

~ yuragi tovoniga tushib ketdi'

~Das Herz geht j-m wie ein Lammerschwänzchen;

~'yuragi qo'zining dumiday likillayapti, yuragini hovuchlab qoldi, yuragi o'ynadi' iboralariga aynan mos keladi. Qo'zichoqning dumiday likillamoq o'xshatishi nemis tili uchun xarakterli bo'lib, o'zbek tilida yuragi yorilayozdi, yuragi qinidan chiqib ketdi kabi variantlar faol qo'llaniladi. Nemis tilida yuragi qo'zichoq dumiday likillayapti shakli ishlatilishi Yevropada dumli qo'ylar boqilishi va ularning dumlari osilib[9] qo'rquvdan tushgan yurak holatini ifodalash uchun mos holga kelishi bilan bog'liq. O'zbek tilida bu o'rinda yuragi kuzgi yaproqday qaltirayapti iborasi xarakterlidir.

Bu so'zning ~Glück, Liebe, Freide - muhabbat, oshuftalikni, baxt, xursandlik ifodalovchi frazemalar tarkibidagi ishtiroki yanada xarakterlidir. E'tibor bering:

~Ein Herz und eine Seele sein ~ 'bir yurak, bir jon bo'lmoq'.

Ayrim frazeologik birliklar mazmunida ma'no tobora kuchayib borib, yurak so'zi ishtiroki aynan ko'ngil ishi bilan bog'lanadi. Yuragidan urib qolmoq, yuragini egallamoq, yuragini zabt etmoq kabi[11].

Nemis tilidagi:

~j-m aus Herz gewachsen sein– frazemasi yuragi o'smoq, ~'yuragiga yaqin bo'lmoq'; usiz yashay olmaydi degan ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Bu mazmundagi iboralar nemis tilida bir necha variantlarda uchraydi. Masalan:

~jmdm.so lieb sein,daß er nicht entbehren möchte;

~'yuragidan urib qolmoq'

~Ihn wollte das Herz;

~'Yurak uni xohlaydi'.

Bu mazmun kengayishining keyingi bosqichlarida o'z doirasidan-da kengroq ma'no ifodalab, faqat muhabbat va oshiqlik belgisini emas, balki umumiy ijobiy munosabat, insoniy fazilat sifatidagi frazemalar tarkibida ham qo'llanadi.

Masalan:

~ Das Herz auf dem rechten Fleck haben. (verständnisvoll sein, hilfsbereit sein) haqiqiy, chin inson; bag'rikeng; yordamini ayamaydi) kabi holatlarni misol qilish mumkin.

~ j-m sein Herz schenken.

~'ko'ngil bermoq';

Insonlarning xarakterli xususiyatlarini ifodalashda ham Herz so'zi frazeologik birliklar tarkibida faol ishtirok etadi. Nemis tilida bu tarkib o'zbek tiliga nisbatan katta hajmni tashkil qiladi. Sababi nemis tilida yurak tushunchasi anglatgan ma'no-mazmuni ifodalashda o'zbek tilida yurak so'zi bilan bir qatorda qalb, dil, ko'ngil so'zlari ham ishlatiladi.

Masalan, ijobiy xislatlarni ifodalashda:

~ j-d hat ein gutes, warmes 'qaynoq yurak'; weiches 'yumshoq ko'ngil'; starkes 'kuchli yurak'; treues 'sodiq yurak'; festes 'toza qalb'; ehrliches 'toza qalb'; fröliches 'quvnoq ko'ngil'; reines 'toza qalb'; edles 'qimmatbaho qalb' Herz;

salbiy xislatlarni ifodalashda:

~ ein Mensch mit bösem 'qaxrli qalb', falsshem 'yolg'onchi ko'ngil', hartem 'bag'ritosh', stolzem 'qahri qattiq', schwachem 'ko'ngilchan', empindsamem 'ta'sirchan', steinerem 'toshqalb' Herzen;

ichki hayajon, to'lqinlanishni ifodalashda:

~ etw. kommt vom Herzen; ~'yurakdan chiqmoq';

~ etw. viel auf dem Herzen haben, das dreht einem ja das Herz im Leibe herum;,

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, nemis tili frazemalari ma'no ko'lamini o'ta rang-barang shakllangan bo'lib, yuqoridagi misollarda ko'rsatib o'tilganday, ular qo'rquv, xursandlik, ikkilanish, qiziqish, harakatchanlik, achchiqlanish, botirlik, xushomad, erkalatish, to'g'ri so'zlikni ifodalash bilan birga o'xshatish, birovni sinash, sevish, o'z so'zida turish, shaxsning turli ijobiy hamda salbiy tomonlari, ruhiy holatini ifodalash, ba'zan esa metaforik o'xshatishlar jarayonida qo'llanib keladi.[11]

XULOSA

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, frazemalar tilning juda noyob birliklari hisoblanadi, ular o'z mundarijasida shu tilda so'zlashuvchi xalqning milliy va madaniy tushunchalarini qamragan holda antropotsentrik xarakterni yaqqol namoyon etadi. Shu sababdan ham tarjima jarayonlarida ularga bepisandlik bilan yuzaki qarash, leksikologiyaning tarkibida turgan kichik va ahamiyatsiz nuqta deb baholash yaramaydi. Sababi frazemalar mazmun mundariyasi va milliy va madaniy koloritiga hamda pragmatik xususiyatlariga ko'ra leksik birliklardan nihoyatda katta farq qiladi.

Frazemalarning bu kabi boshqa xususiyatlari to'liq o'rganilmay turib, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib bo'lmaydi. Bunday lingvistik tahlil tarjima bo'layotgan til doirasida ham o'tkazilgandan so'ng frazemalarning ekvivalentlik holatlarini aniqlashga kirishish zarur.

Tarjimaning bu usulida bir tilda shakllangan turg'un birliklar ikkinchi bir tilda aynan mos varianti topilmaydi. Shu sababli ularning tarjimasida so'zma-so'z tarjima yoki izohli tarjima shaklidan foydalaniladi. Bu esa har qachon ham kutilgan maqsadga muvofiq kelavermaydi. Bir shaklning ikkinchi bir tildagi tarjima holatida juda ko'p milliy va madaniy jihatlar, turg'un birliklardagi nozik ma'no unsurlari tarjima tarkibida tushib qoladi, inobatga olinmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axrorova R.U. Fransuz va o'zbek tillarida yoshga oid leksik-semantik va frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari 2020. –B.98-102.
2. Ашукин Н.С. Ашукина М.Г. Крылатых слова Литературные цитаты, образные выражения. М., Изд-е 3, 1966, 824-с.
3. Беракула К.Т. Англо-украинский фразеологический словарь. Около 30 000 фразеологических выражения. – Кнеж, 1969, Баута А. и др. Русско-питанский фразеологический антарь, -I, Рига, 1974. Тi- 1974, 75%-стр. Т. 735-с.
4. Marta Sender. Finige kritische Bemerkungen zum deutsch-russischen phraseologischen Wörterbuch Fremdspracherunterricht, Jahrgang 1957. –S.634-640.

TILSHUNOSLIK

5. Ольшанский И.Г. Некоторых тенденциях современной немецкой лексикографии Иностранные языки в школе, 1977, X 6. –С.21.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фризесімгик луғати, Т., 1964 –В.212.
7. Сарикова М. Русско-узбекский фразеологический словарь, Т., 1972; –С.192.
8. Умарходжаев М.Э. Очерки по современной фразеологии. Фаң, Т., 1977. –С.133.
9. Умарходжаев М. Основы фразеологии. Автореф. дисс. докт.фил. наук., М., 1981, –С.97-174.
10. Умарходжаев М.И. Вететkungen Phraseologischen Forschung in der UdSSR Sprachpflege, 1972, No 4, – S.85.
11. Юсуфжонова Ш.М. Немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик ибораларнинг миллий – маданий хусусиятлари ва таржима муаммолари. Диссертация, 2022. –Б.68-104.
12. Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Herausgeben von Ruth Klappenbach und Wolfgang Seinitz. Akademie-Verlag, Berlin, 1969, Band 3, Seite 1815.